

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Kurbaniyazova	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi	106
Sh.D.Shodmonova	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati	110
A.I.Samijonov	
“Xavfsizlik” va “Kiberxavfsizlik” atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi	114
N.X.Djalalova	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi	119
I.Z.Nazarova	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari	123

ТАРИХ

A.B.Musayev	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi	129
Ф.А.Эгамбердиев	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса	133
M.M.Xolmatov	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
N.R.Israilov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
O.B.Nizomiddinov	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi	149

АДАБИЙОТШУНОСЛИК

Q.V.Yo'lchiyev	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili	156
A.Badalova	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace"	161
S.F.Yuldosheva	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi	166
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi	170
S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasi misolida).....	175
M.R.Oxunova	
Sharlotta Bronte “Jeyn Eyr” romanida xarakter tasviri	178
L.Hasanova	
Aesthetics of the literary direction romanticism	182
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla sher sonetlari tahlili	186
Z.F.Shukurova	
“Tarixi Rashidiy” asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini	192

ТИЛШУНОСЛИК

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
Z.V.Alimova	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida	198



UO'K: 821.512.133+80.161.1-3

EPIK ASAR SYUJETIDA UCHRASHUV MOTIVINING O'RNI
(L.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida)**МЕСТО МОТИВА ВСТРЕЧИ В СЮЖЕТЕ ЭПИЧЕСКОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ**
(На примере рассказа Л.Толстого "После бала")**ROLE OF THE MEETING MOTIVE IN THE PLOT OF THE EPIC WORK**
(In the example of L.Tolstoy's story "After the Ball")**Xodjajev Sidiq Ahmedovich¹** ¹Farg'ona davlat universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Sobirjonova Osiyoxon Yolqinjon qizi²** ²Farg'ona davlat universiteti II kurs magistranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada uchrashuv motivining boshqa motivlar singari badiiy asar syujetini tashkil qilishda muhim vosita ekanligi va uning syujet elementi o'laroq badiiy asarda aniq vazifani amalga oshiruvchi unsur sifatida harakatlanishi mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, uchrashuv motivining syujet asosini hosil qiluvchi, voqealarni rivojlantiruvchi, asar kulminatsiyasini belgilovchi, qismlarni bog'lovchi vosita ekanligi misollar asosida dalillangan. Ushbu motivning badiiy adabiyotda uchraydigan boshqa motivlar bilan bog'liq xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье подчеркивается тот факт, что мотив встречи является важным инструментом организации сюжета художественного произведения, как и другие мотивы, и его движение как сюжетный элемент, выполняющий определенную задачу в произведении искусства показано на примере повести «После бала» известного русского писателя Льва Толстого. Также на примерах доказывається, что мотив встречи составляет основу сюжета, развивает события, определяет кульминацию произведения, соединяет части. Обсуждаются характеристики этого мотива по отношению к другим мотивам, встречающимся в художественной литературе.

Abstract

In this article, the fact that the motive of the meeting is an important tool in organization of the plot of a work of art, like other motives, and its movement as an element of a plot that performs a specific task in a work of art is shown on the example of the story "After the Ball" by the famous Russian writer Leo Tolstoy. Also, it is proved on the basis of examples that the motive of the meeting forms the basis of the plot, develops the events, determines the climax of the work, and connects the parts. The characteristics of this motive related to other motives found in fiction are discussed.

Kalit so'zlar: syujet, motiv, yo'l xronotopi, konflikt, obraz, qahramon, xarakter.**Ключевые слова:** сюжет, мотив, дорожный хронотоп, конфликт, образ, герой, персонаж.**Key words:** plot, motive, rode chronotope, conflict, image, hero, character.**KIRISH**

Motiv poetikaning eng muhim muammolaridan biri sifatida XX asr boshidan beri ko'plab adabiyotshunoslarning ilmiy e'tiborini tortib kelayotgani va ularning har birida epik syujetning eng kichik barqaror birligi sifatida tahlilga tortilib kelinayotgani barchamizga ma'lum. Bugungi kunda ham epik asarlardagi motivlarni aniqlash, har bir motivning boshqa motiv bilan bog'liq jihatlarni, ichki harakat va xususiyatlarini, badiiy-estetik vazifalarini tahlil etish adabiyotshunoslikdagi muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan syujetning yetakchi motivlaridan biri – uchrashuv motivi ham asarlarda ko'p qayd etilgan; adabiyotshunoslar tomonidan asarning janr tabiatini aks ettirishi, ichki turlarining xususiyatlarini namoyon qilishi, voqealar rivojini ta'minlovchi belgilarga ega ekanligi ta'kidlangan, shu bilan birga, yetarli darajada o'rganilmagan mavzu sanaladi.

Avvalo, har bir tadqiqotchi butunni bilishi uchun uni yuzaga keltiruvchi qismlarni anglashi lozim. Shu ma'noda, epik asarlarning syujet asosini tashkil etuvchi motivlarni bilmasdan ularning

mohiyatini tushunib yetish mushkul. Demak, dastlab "motiv" o'zi nima ekanligiga to'xtalib o'tish lozim.

Motiv ko'p ma'noli atama sifatida qayd etilgan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi quyidagicha ifodalanadi:

- a) fransuzcha – "kuy", "ohang" ;
- b) lotincha (yoki yunoncha) – "harakatlanmoq".

"Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" da "Motiv – syujet tarkibidagi halqalardan biri "[1:190-191], deyilgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, syujet asar mazmunini tashkil etuvchi voqealar tizimi bo'lsa, motiv shu voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ya'ni epik asar strukturasi motivlarsiz tasavvur etish qiyin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Badiiy asar syujeti va motivi borasida ko'plab mutaxassis olimlar o'zlarining turlicha qarashlarini bildirishgan. Biroq shunga qaramay ko'pchilik olimlar rus olimi A.N.Veselovskiyning bu boradagi fikrlariga tayanishadi. Mazkur olim motivlarning syujetni yuzaga keltiruvchi eng asosiy bo'g'in ekanini ta'kidlab, "Motivlar birlashib syujet halqasini vujudga keltiradi", deydi [2:494]. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, olim allaqachon motivni syujetni tashkil qiluvchi asosiy unsur sifatida tushungan. Shuningdek, uning ushbu nazariy fikrlari epik matnning tekshirish ishlarida o'z tasdig'ini topdi va ko'plab dunyo olimlari tomonidan atamaning mazmun-mohiyati yanada rivojlantirilib, takomillashtirildi [3:448]. Umuman olganda, motivning genezisi, uning tadrijiy takomili xususida qancha to'xtalsak ham kam. Shunday ekan, quyida mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida motivning, xususan, uchrashuv motivining asar syujetidagi o'rniga to'xtalsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotda uchrashuv motivi bo'lmagan badiiy asarni topish amrimahol, albatta. Adabiyotshunos olim M.Baxtinning fikricha, uchrashuv motivlari turli asarlarda o'zaro aniq va hissiy jihatdan qiymatdor (uchrashuv ba'zan xohish bilan, ba'zan xohishsiz, ba'zan quvonchli yoki qayg'uli, ba'zan esa qo'rqinchli yoki ambivalent (kishida bir vaqtning o'zida qarama - qarshi hissiyotning vujudga kelishi. Masalan, ba'zan kishida ayni bir narsaga yoki kishiga nisbatan ham mehr, ham nafrat ifodalanadi) bo'lishi mumkin) farqlarga molik bo'ladi. Shu bilan birga uchrashuv motivlari turli kontekstlarda turlicha ifodalanishi mumkin. U ba'zan chala, ba'zan to'la tashbeh sifatida namoyon bo'lishi, nihoyat mukammal (ba'zan o'ta chuqur) ramzga aylanishi ham mumkin [4:59-60]. Aynan biz tahlilga tortayotgan hikoya ham xuddi shunday uchrashuv motivi asosiga qurilgan desak, yanglish bo'lmaydi. Hikoyada birgina uchrashuv kishi hayotini keskin burib yubora olishi yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvirlanadi.

Bir qator holatlarda motivlar aslida bir butun bo'lib uyushgan bloklarga aylanib, ularning ma'nolarini ochib beradi. Masalan, dostonlarning boshlanishiga xos xususiyat: knyazlik ziyofati, mehmonlarning xulq-atvori, shahzodaning so'zlari, boshqa birovdan elchi kelishi, tomoshabinlarning munosabati, qahramonga topshiriq. Bunday bloklar syujetning ajralmas qismlari sifatida ishlaydi. Ularning ortidan yangi bloklar keladi va shu tariqa syujet nafaqat motivlar, balki bir qancha motiv bloklari, ularning bog'lanishlari bilan harakatlanadi [5:128]. Hikoyada esa hammasi bir badavlat kamergerning uyida uyushtirilgan bazm-u ziyofatdan boshlanadi. Bunday bazmlardan hech qolmaydigan asar qahramoni (hikoyada ismsiz berilgan) mana shu yerda xonadon egasining qizi Varenkaga oshiq bo'lib qoladi. Oq ko'ylak kiygan, belida pushti kamar, qo'lida nozik va ingichka tirsaklariga yetar-yetmas oq charm qo'lqop, oyog'iga esa oq atlasdan boshmoq kiygan bu qiz bilan uchrashuv dastlab qahramonimizni hayotga faqat va faqat yaxshi nazar bilan boqishga undaydi. Buni hikoyadan olingan ushbu parchadan ham bilib olishimiz mumkin:

"...Shu damda men xursand va mamnun bo'lish bir yoqda tursin, himmatim oshgan, o'zimda yo'q edim. O'zimni yomonlikni sira bilmaydigan, faqat yaxshilik qiladigan allaqanday samoviy vujud deb fahmlardim" [6:90]. Bundan ko'rinib turibdiki, hikoya qahramoni uni oldinda nima kutib turishini bilmas va bu uchrashuv uni juda ham masrur etgan edi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asarda uchrashuv motivining kompozitsion funksiya: ba'zan tugun, ba'zan kulminatsiya, ba'zida esa syujet yechimi vazifasini bajarganligini ko'rish mumkin. Jumladan, hikoyada dastlab kitobxon e'tiborini tortmaydigan, biroq asar kulminatsiyasiga sabab bo'ladigan obraz bilan bog'liq

ADABIYOTSHUNOSLIK

uchrashuv motivi mavjud. U Varenkaning otasi polkovnik Pyotr Vladislavich orqali yuzaga chiqadi. Bu obraz orqali yozuvchi hech qachon boshqa bir insonning tashqi ko'rinishiga qarab baho berib bo'lmashligini, birinchi uchrashuvda hamma ham haqiqiy qiyofasini ko'rsata olmasligini uqtirgandek go'yo. Chunki hikoyada dastlab qahramonimiz tomonidan Varenkaning dadasi chiroyli, uzun bo'yli, basavlat va tetik bir chol edi. Yuzi och qizil, Nikolay I nikiga o'xshash oppoq, xushmo'ylov, oppoq bakenbardi mo'ylovigacha tutashib kelgan, chakkasidagi sochlari oldinga qaratib taralgan. Chaq nab turgan ko'zlari bilan lablari xuddi qiznikiga o'xshab mayin kulib turardi. Jussasi kelishgan, harbiy kishilarnikidek ko'tarilib turgan keng ko'kragida bir-ikkita nishon. Yag'rini keng, oyoqlari uzun va to'g'ri. Bu kishi Nikolay I zamonasida mashq ko'rgan eski sipohlarga o'xshash askar boshlig'i edi deya ta'riflanadi. Darhaqiqat, ushbu ta'riflardan nafaqat hikoya qahramoni, balki bu hikoya bilan tanishgan kitobxon-o'quvchi xayolida ham dastlab qizning otasi oqko'ngil, xushmuomala obraz sifatida gavdalanadi. Asar so'ngida esa yigit uni tasodifan uchratib qoladi va mana shu kutilmagan uchrashuv hikoyaning syujetini butunlay boshqa tomonga o'zgartirib yuboradi. Asardan olingan quyidagi parchaga e'tibor beraylik:

“Yonimga kelib to'xtagan temirchidan:

– Ular nima qilayotirlar? – deb so'radim.

Temirchi ko'zlarini safning oxiridan uzmay:

– Qochgani uchun bir tatarni sazoyi qilyaptilar, – dedi.

Men ham temirchi qaragan tomonga qarab saf orasida menga yaqinlashib kelayotgan allaqanday dahshatli bir narsani ko'rdim. Menga tomon kelayotgan narsa beligacha yalang'och va uni yetaklab kelayotgan ikki soldatning miltiqlariga bog'langan bir kimsa ekan. Uning yonida shinel va shapka kiygan uzun bo'yli harbiy bir odam kelardi. Bu kishining qiyofasi tanishdek ko'rindi. Sazoyi qilingan bechora erigan qorni shilp-shilp bosib, har ikki tomondan tushgan kaltak zarbidan gandraklab, menga qarab kelmoqda”. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ziyofatda kishida mutlaqo boshqacha tasavvur uyg'otgan bu obraz B.ning otasi edi. Polkovnik orqasi kaltak zarbidan ko'karib ketgan sazoyi tatarni sekinroq kaltaklagani uchun qo'lqop kiygan baquvvat qo'li bilan bir soldatning yuziga tarsaki tushiradi. Hattoki atrofiga alanglab yangi tayoq keltirishlarini so'ragan bu obraz yigitga dahshat va g'azab bilan qarab uni tanimaslikka oladi...Mana shu tasodifiy uchrashuvdan so'ng yigit polkovnikning asl yuzini ko'radi. U bu jirkanch holatdan keyin uning qiziga uylanish tugul eng sevimli istaklaridan biri bo'lgan harbiy xizmatga ham, harbiy xizmatgina emas, hatto hech qanaqa xizmatga kirolmaydi.

Adabiyotda yo'l motiviga doir variatsiyalarga ega bo'lmagan asarlarga kamdan kam duch kelamiz. Aksincha, yo'l xronotopi, yo'ldagi uchrashuvlar, yo'l sarguzashtlari asosiga qurilgan asarlar ko'pchilikni tashkil etadi desak, xato bo'lmaydi. Yuqoridagi parchadan ham uchrashuv motivining turli xil yo'l uchrashuvlari – yo'l xronotopi bilan muhim bog'lanishga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, hikoyadagi mana shu uchrashuv motivi orqali uning boshqa motivlar singari adabiyotda muhim rol o'ynaydigan tanish-tanimaslik motivi (hikoyada ham dastlab yigit polkovnik obrazini tanimagan va hatto uni xayoliga ham keltirmagandi) bilan ham mustahkam aloqaga ega ekanligi ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasidagi uchrashuv motivi dinamik, ya'ni vaziyatni o'zgartiradigan motivlar sirasiga kiradi deya olish mumkin. Chunki hikoyani uchrashuv motivisiz tasavvur qilish qiyin. Shuningdek, motivning syujetni shakllantirishdagi roli ham asarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, uchrashuv motivi epik asar syujetida o'ziga xos o'ringa ega va u yuzaga keltiradigan turli xil vaziyatlar, to'qnashuvlar kitobxonni asarga yana ham qiziqtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1979.
2. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – L.: Vi'sshaya shkola, 1940.
3. Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. – М., Лабиринт, 1997.
4. М.Бахтин. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: “Akademnashr”, 2015.
5. Путилов Б.Н. Мотив – сюжетни ташкил килувчи элемент сифатида/ Таржимадан. А. Абдужалилов// Узбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021.
6. L. Tolstoy. Baldan so'ng. [Matn]: hikoyalar/ Tarjimonlar: Aliyev M. va b. – T.: “Ziyonashr”, 2023.